



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





O‘ZBEKISTONDA DAVLAT QARZ PORTFELINI RISK-DIAGNOSTIKA ASOSIDA BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Tilabov Nasrulla Tashmurotovich

*moliya va moliyaviy texnologiyalar
kafedrası dotsenti, i.f.n.
Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti
E-mail: n.tilabov@tsue.uz.
ORCID 0000-0002-4412-4019*

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston davlat qarzi portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish masalasi tahlil qilindi. Tadqiqot 2020–2025-yillar yakuniy ko‘rsatkichlari va 2026-yil I choragi bo‘yicha rasmiy davlat qarzi ma‘lumotlariga, shuningdek, O‘RQ–836-son Qonun, PF–21-son Farmon,

2026–2028-yillar uchun Fiskal strategiya va Davlat qarzini boshqarish strategiyasiga tayandi [1–4]. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qarzi/YIM ko‘rsatkichi qonuniy limitlardan past bo‘lsa-da, portfel tarkibida valyuta xatari, o‘zgaruvchan foiz stavkali qarzi ulushi va kelgusi 12 oyda so‘ndiriladigan majburiyatlar monitoringi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Maqolada fiskal qoidalar, MTDS, SRDSF, DeMPA, Debt Dashboard va “risk pasporti”ni birlashtiruvchi ixcham metodologik model taklif etildi.

Kalit so‘zlar: davlat qarzi, qarzi portfeli, risk-diyagnostika, MTDS, SRDSF, DeMPA, valyuta xatari, refinanslash xatari, fiskal barqarorlik.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ ПОРТФЕЛЕМ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДОЛГА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ РИСК-ДИАГНОСТИКИ

Тилабов Насрулла Ташмуратович

*доцент кафедры
финансы и финансовые технологии
Ташкентского государственного
экономического университета
E-mail: n.tilabov@tsue.uz. 90 991 77 34
ORCID: 0000-0002-4412-4019*

Аннотация. В статье проанализирован вопрос совершенствования методологии управления портфелем государственного долга Узбекистана на основе риск-диагностики. Исследование опирается на официальные данные о государственном долге за 2020–2025 годы и I квартал 2026 года, а также на Закон № ЗРУ–836, Указ Президента № ПФ–21, Фискальную стратегию на 2026–2028 годы и Стратегию управления государственным долгом [1–4]. Результаты показывают, что, несмотря на то что показатель долга к ВВП остается ниже установленных законодательных лимитов, в структуре долгового портфеля сохраняют актуальность валютный риск, доля долга с плавающей процентной ставкой и мониторинг обязательств, подлежащих погашению в течение следующих 12 месяцев. В статье предложена компактная методологическая модель, объединяющая фискальные правила, MTDS, SRDSF, DeMPA, Debt Dashboard и «паспорт риска».

Ключевые слова: государственный долг, долговой портфель, риск-диагностика, MTDS, SRDSF, DeMPA, валютный риск, риск рефинансирования, фискальная устойчивость.





IMPROVING THE METHODOLOGY FOR MANAGING UZBEKISTAN’S PUBLIC DEBT PORTFOLIO BASED ON RISK DIAGNOSTICS

Tilabov Nasrulla Tashmurotovich

*Finance and financial technologies
department associate professor
Tashkent State the University of Economics
ORCID: 0000-0002-4412-4019*

Abstract. *The article analyzes the issue of improving the methodology for managing Uzbekistan’s public debt portfolio based on risk diagnostics. The study is based on official public debt data for 2020–2025 and the first quarter of 2026, as well as Law No. ZRU–836, Presidential Decree No. PF–21, the Fiscal Strategy for 2026–2028, and the Public Debt Management Strategy [1–4]. The findings show that although the debt-to-GDP ratio remains below the legally established limits, currency risk, the share of debt with variable interest rates, and the monitoring of obligations maturing within the next 12 months remain relevant issues in the structure of the debt portfolio. The article proposes a compact methodological model that integrates fiscal rules, MTDS, SRDSF, DeMPA, the Debt Dashboard, and a “risk passport.”*

Keywords: *public debt, debt portfolio, risk diagnostics, MTDS, SRDSF, DeMPA, currency risk, refinancing risk, fiscal sustainability.*

Kirish

Davlat qarzi siyosati zamonaviy iqtisodiy sharoitda faqat budget taqchilligini moliyalashtirish vositasi sifatida emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan strategik boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo’lmoqda. U fiskal siyosatning muhim tarkibiy qismi bo’lib, suveren kredit reytingi, xalqaro moliya bozorlari ishonchi va investitsion muhit jozibadorligiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli davlat qarzi iqtisodiy siyosatning passiv elementi emas, balki faol boshqariladigan tizimli omil sifatida qaralishi lozim.

Bundan tashqari, davlat qarzi ichki kapital bozorini rivojlantirishda ham muhim rol o’ynaydi. Davlat obligatsiyalarining chiqarilishi orqali moliya bozorida benchmark foiz stavkalari shakllanadi, bu esa xususiy sektor uchun ham moliyalashtirish sharoitlarini belgilab beradi. Natijada davlat qarzi siyosati nafaqat budget ehtiyojlarini qondirishga, balki iqtisodiyotda uzoq muddatli investitsion resurslar oqimini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, davlat qarzini baholashda faqat qarzning YaIMga nisbati kabi umumiy indikatorlarga tayanish yetarli emas. Qarzi portfelining valyuta tarkibi, foiz stavkalari tuzilmasi, muddatlar profili hamda qayta moliyalashtirish xatarlari kompleks tarzda tahlil qilinishi zarur. Bunday yondashuv fiskal xavflarni aniqroq baholash, qarzi barqarorligini ta’minlash va samarali qarzi boshqaruvi strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi.

O’zbekistonda “Davlat qarzi to’g’risida”gi Qonun davlat qarzi munosabatlari, vakolatlar va nazorat mexanizmlarini huquqiy jihatdan belgilaydi [1]. 2026–2028 yillar uchun Fiskal strategiya va Davlat qarzini boshqarish strategiyasi esa defitsit intizomi, qarzi limitlari, portfel risklari va moliyalashtirish ssenariylarini o’zaro bog’laydi [3; 4]. PF–21-son Farmonda strategik maqsadlar ijrosini monitoring qilish, raqamli platformalar va natijaga yo’naltirilgan boshqaruv talablari kuchaytirilgani qarzi siyosati uchun ham muhim metodologik asos yaratadi [2].

Maqolaning maqsadi - O’zbekiston davlat qarzi portfeli bo’yicha 2020–2026 yillar kesimidagi risk indikatorlarini tizimlashtirish, 3-jadvalda to’liq risk-diagnostics matritsasini shakllantirish va DSc dissertatsiya mavzusiga mos takomillashtirilgan metodologik modelni asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Adabiyotlar sharhi davlat qarzi siyosatini uch blokda o’rganish zarurligini ko’rsatadi: birinchisi — huquqiy-fiskal qoidalar va limitlar; ikkinchisi — portfelning xarajat-xatar





muvozanati; uchinchi — institutsional monitoring, audit va raqamli tahlil sifati. Quyidagi ixcham jadval maqolada foydalanilgan asosiy nazariy-metodik manbalarni jamlaydi.

1-jadval.

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy manbalar sharhi*

T/r	Muallif va manbalar	Adabiyot nomi	Maqoladagi ahamiyati
[1]	O‘zbekiston Respublikasi	“Davlat qarzi to‘g‘risida”gi O‘RQ–836-son Qonun	Qarz chegaralari, vakolatlar va parlament nazorati asosini belgilaydi
[2]	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 16.02.2026 yildagi PF-21-sonli Farmoni	Strategik monitoring, natijadorlik va raqamli platforma talablarini kuchaytiradi
[3]	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Fiskal strategiya 2026–2028; Davlat qarzini boshqarish strategiyasi	Defitsit, qarz/YIM, portfel xatari va moliyalashtirish ssenariylarini bog‘laydi
[4]	Alessandro Missale	Public Debt Management	Valyuta, indeksatsiya va muddat tarkibining qarz xatariga ta‘sirini asoslaydi
[5]	Graeme Wheeler	Sound Practice in Government Debt Management	Qarz boshqaruvi, bozor bilan ishlash va aktiv-majburiyat yondashuvini yoritadi
[6]	E. Currie, J.-J. Dethier, E. Togo; M. Melecky	Institutional Arrangements for Public Debt Management; A Cross-Country Analysis of Public Debt Management Strategies	Vakolatlar, nazorat, benchmark va ochiq e‘lon qilinadigan indikatorlarni asoslaydi
[7]	IMF va World Bank	SRDSF, MTDS, DeMPA va Revised Guidelines metodologiyalari	Stress-test, xarajat-xatar tahlili, audit, IT tizimlari va institutsional sifadni baholaydi

*Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu 1-jadval milliy hujjatlar, Jahon banki va XVJ metodologiyalari asosida muallif tomonidan tuzildi. Mazkur manbalar asosida maqola risk-diagnostika yondashuvini ilgari suradi: qarz strategiyasi ochiq indikatorlarga [6], portfel tarkibi valyuta va muddat xatarlariga [4], institutsional sifati esa audit, monitoring va hisobotga [6; 7] bog‘lanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda hujjatli tahlil, dinamik qatorlar, nisbiy ko‘rsatkichlar, qiyosiy-institutsional tahlil va risk-matritsa usullaridan foydalanildi. Empirik baza sifatida 2020–2025-yillar yakuniy ko‘rsatkichlari hamda 2026-yil I choragi bo‘yicha davlat qarzi jadvallari olindi. Asosiy indikatorlar: jami davlat qarzi, qarz/YIM nisbati, tashqi va ichki qarz ulushi, chet el valyutasiga sezgir qarz, o‘zgaruvchan foiz stavkali qarz va kelgusi 12 oyda so‘ndiriladigan majburiyatlar.


Risk-diagnostika matritsasi uch amaliy savolga javob beradi: qarz qaysi valyutada jamlangan, foiz xarajatlari qanchalik o‘zgaruvchan va yaqin davrda qayta moliyalashtirish bosimi qanday shakllanmoqda. Shu asosda har bir yil bo‘yicha umumiy baho “o‘rta”, “o‘rta-yuqori” yoki “yuqori” darajada belgilanadi.





1-rasm.

Davlat qarz portfelini risk-diaagnostika asosida boshqarish modeli*



*MTDS, SRDSF, DeMPA va milliy fiskal strategiya tamoyillari asosida muallif ishlanmasi.

Tahlil va natijalar


2020–2026-yillar dinamikasi davlat qarzi hajmi o‘shishini, biroq qarz/YIM nisbatida bir xil yo‘nalish mavjud emasligini ko‘rsatadi. 2020-yilda pandemiya sharoitida qarz/YIM nisbati 35,2 foizgacha ko‘tarilgan bo‘lsa, 2026-yil I choragida dastlabki prognoz YaIM bazasi hisobiga 26,6 foiz darajasida qayd etildi. Shu bilan birga, risklar qarz hajmidan ko‘ra portfel tarkibida jamlanmoqda.

2-jadval

O‘zbekiston davlat qarzi dinamikasi va tarkibidagi asosiy o‘zgarishlar*

Yil	Jami qarz, mlrd \$	Qarz/ YaIM, %	Tashqi/ichki ulush, %	Qisqa xulosa
2020	23.367	35.2	90/10	Pandemiya davrida qarz/YIM keskin oshdi.
2021	26.323	34.0	90/10	Tashqi qarz ulushi yuqori saqlandi.
2022	29.231	32.4	89/11	Qarz/YIM pasaydi, lekin FX xatari yuqori.
2023	34.927	34.4	85/15	Ichki qarz bozori faollashdi.
2024	40.215	35.0	84/16	Qarz/YIM yuqori nuqtaga yaqinlashdi.
2025	46.851	31.9	85/15	Qarz hajmi oshdi, qarz/YIM nisbati pasaydi.
2026-I	46.985	26.6	85/15	Dastlabki YaIM prognozi ta’siri sezildi.

*Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy qarz jadvallari asosida muallif hisob-kitoblari.



2-rasm. Davlat qarzi hajmi va qarz/YaIM nisbati*





*Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Mazkur 2-rasm O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2020–2026-yillar bo‘yicha rasmiy qarz ma‘lumotlari asosida tuzilgan bo‘lib, tahlilning ikkinchi muhim natijasi — tashqi qarz va valyuta xatarining yuqori ulushidir.

2020–2022-yillarda tashqi qarz 89–90 foiz atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2023–2026-yillarda ichki qarz bozorining kengayishi natijasida u 84–85 foiz oralig‘iga tushdi. Biroq chet el valyutasiga sezgir qarz ulushi 2026-yil I choragida ham 87,9 foizni tashkil etgani portfel diversifikatsiyasini davom ettirish zarurligini ko‘rsatadi.

3-jadval

Davlat qarz portfeli bo‘yicha risk-diagnostika matritsasi

Yil	Jami qarz, mlrd \$	Qarz/ YaIM, %	Tashqi qarz ulushi, %	FX sezgir qarz, %	O‘zgaruvchan stavka, %	12 oyda so‘nuvchi qarz, mln \$ / %	Risk bahosi
2020	23.367	35.2	90	94.1	40.5	487 / 2.1	Yuqori
2021	26.323	34.0	90	94.0	39.6	409 / 1.6	Yuqori
2022	29.231	32.4	89	92.4	41.7	1 121 / 3.8	Yuqori
2023	34.927	34.4	85	93.1	39.8	2 407 / 6.9	Yuqori
2024	40.215	35.0	84	91.0	39.2	2 770 / 6.9	Yuqori
2025	46.851	31.9	85	87.8	40.0	3 033 / 6.5	Yuqori
2026 I-chorak	46.985	26.6	85	87.9	40.0	2 643 / 5.6	O‘rta-yuqori

Ushbu 3-jadvalda 2020–2026-yillar bo‘yicha rasmiy davlat qarzi jadvallari asosida muallif hisob-kitoblarida 2026-yil I choragi, YaIM ko‘rsatkichi dastlabki prognoz asosida berilgan ma‘lumotlar matritsasi shuni ko‘rsatadiki, 2020–2026-yillarda valyuta xatari asosiy tizimli omil bo‘lib qolmoqda, ya‘ni FX sezgir qarz ulushi 94,1 foizdan 87,9 foizgacha pasaygan bo‘lsa-da, u hali ham yuqori. Metodik javob sifatida FX stress-test, milliy valyutadagi uzoq muddatli obligatsiyalar, maturity ladder, Debt Dashboard va har bir yirik qarz qarori uchun “risk pasporti”ni joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston davlat qarz siyosatida asosiy metodologik urg‘u hajmiy limitlardan risk-diagnostika tizimiga ko‘chishi kerakligini ko‘rsatadi. Qarz/YIM ko‘rsatkichi nisbatan xavfsiz diapazonda saqlanayotgan bo‘lsa-da, portfel tarkibidagi valyuta xatari, o‘zgaruvchan foiz stavkasi va refinanslash bosimi qaror qabul qilishda alohida indikatorlar sifatida baholanishi zarur.

Birinchiidan, har bir yangi qarz, davlat kafolati va DXSH majburiyati bo‘yicha “risk pasporti” joriy etilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchiidan, IMV, Markaziy bank va budjet ijrosi tizimlarini bog‘lovchi Debt Dashboard orqali qarz/YIM, FX ulushi, o‘zgaruvchan stavka, kelgusi 12 oyda so‘nuvchi qarz va kafolatlar avtomatik yangilanib borishi kerak. Uchinchiidan, milliy valyutadagi uzoq muddatli obligatsiyalar bozorini kengaytirish valyuta xatarini kamaytiradi. To‘rtinchiidan, MTDS, SRDSF va DeMPA mezonlari asosida har yili mustaqil metodologik baholash o‘tkazilishi investorlar ishonchi, parlament nazorati va jamoatchilikka ochiqlikni kuchaytiradi.

Umumiy xulosa shuki, davlat qarz siyosatini takomillashtirishning zamonaviy yo‘li — fiskal qoidalar, portfel risklari, loyiha samaradorligi va raqamli monitoringni yagona risk-diagnostika platformasida birlashtirishdir. Bunday yondashuv davlat qarzini nafaqat “xavfsiz limitda saqlash”, balki uning xarajati, xatari va iqtisodiy natijasini muvozanatli boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi O‘RQ–836-son Qonun.





Toshkent, 29.04.2023. 37 b. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6446817>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 16.02.2026 yildagi PF-21-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2026–2028-yillar uchun Fiskal strategiya. Toshkent, 2026. 138 b. URL: <https://www.imv.uz/static/fiskal-strategiya>

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat qarzini boshqarishning 2026–2028-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi. Toshkent, 2026. 28 b. URL: <https://www.imv.uz>

5. Missale A. Public Debt Management. Oxford: Oxford University Press, 1999. 309 p. URL: <https://global.oup.com/academic/product/public-debt-management-9780198290858>

6. Wheeler G. Sound Practice in Government Debt Management. Washington: World Bank, 2004. URL: <https://openknowledge.worldbank.org>

7. Currie E., Dethier J.-J., Togo E.; Melecky M. Institutional and Strategy Papers on Public Debt Management. Washington: World Bank, 2003–2007. URL: <https://openknowledge.worldbank.org>

8. IMF and World Bank. Revised Guidelines for Public Debt Management; MTDS; SRDSF; DeMPA Methodology. Washington, 2014–2022. URL: <https://www.imf.org>; <https://documents1.worldbank.org>

